

# SENSOR ALALIK BOLALARNING FONEMATIK IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA “ERTAK TERAPIYA”NING AHAMIYATI.

Arifxodjaev G’ulom Sayyorovich, Jizzax davlat pedagogika instituti  
“Maxsus pedagogika” kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari  
nomzodi.

Hamidova Mohinur Niyoz qizi, Jizzax davlat pedagogika instituti  
“Defektologiya” logopediya yo’nalishi talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sensor alalik bolalar fonematik idrokining rivojlanishidagi qiyinchiliklari ularning fonematik idrokini korreksiyalashda “Ertak terapiya”ning afzalliklari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so’zlar:** korreksiya, alaliya, fizioterapiya, lazeroterapiya, magnitoterapiya, elektroforez, kompleks ish, terapiya.

**Аннотация:** В этой статье обсуждаются трудности в развитии сенсорного фонематического познания у детей с алалией и преимущества сказочной терапии в коррекции их фонематического познания.

**Ключевые слова:** коррекция, алалия, физиотерапия, лазеротерапия, магнитотерапия, электрофорез, комплексная работа, терапия.

**Abstract:** This article discusses the difficulties in the development of sensory alalia phonemic cognition in children, and the advantages of fairy tale therapy in correcting their phonemic cognition.

**Keywords:** correction, alalia, physiotherapy, laser therapy, magnetotherapy, electrophoresis, complex work, therapy.

Xozirgi vaqtda nutq nuqsonining rivojlanishi va bolalarda muloqot malakalarining yetarlicha takomillashmaganligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, shunday nutq nuqsonlaridan biri alaliyadir. “Alaliya” atamasi (grekcha a – yo’q, lotincha lalio - nutq) tarjimasi nutqning yo’qligi, nutqsizlik holati deb kuzatiladi. Alaliyada bosh miyaning ayrim po’stloq sohalarida nerv tolalarini shakllanishining orqada qolishi kuzatiladi. Asab tolalari yetishmagan bosqichda, ya’ni neyroblast o’z rivojlanishini to’xtatadi. Alaliyaning motor va sensor turlari mavjud. Motor alaliyada bola kam va noto’g’ri gapiradi, unga qaratilgan nutqiy

muloqotni tushunadi. Ayrim tovushlarni talaffuz qilgani bilan tovush birikmalarini o'zlashtira olmaydi, butun so'z o'rniga uning bir qismini aytadi (masalan, mushukni "mu" deydi) va h. k. Sensor alaliyada bola atrofdagilarning nutqini yomon tushunadi yoki mutlaqo tushunmaydi. Bunda bola nutqining buzilishi, ulg'aygani sari ruhiy taraqqiyoti ham o'z tengdoshlaridan ortda qolishiga olib keladi.

Sensor alalik bolalar nutqini korreksiyalashda kompleks ravishda tizimli ishlar olib borilishi lozim ya'ni bunda:

- \* tibbiy dori – darmonlar yordamida davolash kurslari muntazam ravishda tashkil etish.

- \* fizioterapiya (lazeroterapiya, magnitoterapiya, elektroforez, suv bilan davolash

- \* logopedik korreksiya ishlari

- \* psixologik-pedagogik yondashuv.

Sensor alalik bolalar bilan korreksion ishlar qancha erta boshlansa ulardagi kamchiliklarni korreksiyalash jaroyonida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bu kamchiliklarni korreksiyalashda kompleks yondashish maqsadga muvofiqdir. Logoped olib boradigan pedagogik tuzatish ishlarining asosiy vazifasi sensor alalik bolalarning fonematik idrokidagi nuqsonlarni va ruhiy noto'kis jihatlarini korreksiyalash hisoblanadi. Logoped o'z mahorati va uslublari bilan sensor alalik bolalarga ta'sir etishda qo'llay biladigan zarur mutaxassislarning nevropatolog, psixolog, hamkorligidagi ishlarni tashkil etadi. Ya'ni sensor alaliyada logopedik ta'sir nutq tarkibining ongli tahlilini tarbiyalash, fonematik idrokini rivojlantirisha, nutq tarkibini tushunishga qaratilgan bo'ladi. V.K.Orfinskaya, N.N. Traugottlar bayon etishicha, sensor alaliyada fonemalarni farqlash ya'ni tovushlarni bolaga eshittirib, talaffuz ettirish, fonematik tahlil ustida ish olib borish masalan so'zlarda tovushlar ketma-ketligini farqlashga o'rgatish ya'ni so'zda qaysi tovush qanday o'rinda ishlatilmoqda so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida. So'z tarkibining morfologik tahlilida qiyinchiliklar kuzatiladi va aynan shu bois nuqsonning o'ziga xosligini kasb etadi. Sensor alalik bolalarning fonematik idrokini rivojlantirishda tevarak –atrofdagi tovushlarga, nutqiy tovushlarga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularga taqlid qilishga ehtiyoj, xohish va imkoniyatlarini rivojlantirish, nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlashni o'rgatib borish lozim. Sensor alalik bolalarda fonematik idrokini rivojlantirishda "Ertak terapiya"sidan foydalanishimiz mumkin. Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konfilikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rne va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra,

shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrlil ertaklar, maishiy ertaklar, hajvii ertaklarga bo'linadi. Ertaklar yordamida bolalardagi ba'zi kasalliklar(), o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, salbiy odatlar , eshituv diqqatini, xotirasini yaxshilashga olib keladi. Sensor alalik bolalarning fonematik idrokini rivojlantirishda hayvonlar ishtirok etgan ertaklardan keng foydali sh mumkin. Ertakni o'qib berish jarayonida hayvonlar ovoziga taqlid qilish, boshqa hayvonlar ovozidan farqlab borish, hayvonlarning yaxshi va salbiy odatlarini rasmlar orqali mustahkamlanib boradi.

**“Bo'g'irsoq ertagi”**. Ushbu ertak she'riy janrda bo'lganligi sababli ertaktagi so'zlarni kuylab berish davomida bolalarda kuchli qiziqish uyg'otadi. Ertak davomidagi har bir hayvonning o'z ovozi toni borligi uning ertakni diqqat bilan tinglashga yordam beradi. Masalan, quyoning past va titroq ovozi, ayiqning yo'g'on ovozi , bo'ringning baland ovozi, tulkining mayin va ayyorona ohangi. Ertak so'ngida esa bolaga turli savollar bilan murojaat qilish mumkin. Ertakda qanday hayvonlar ishtirok etdi? Quyoning ovoziga taqlid qilchi? Kimning ovozi yo'g'on va baland, sen ham shunday takrorlab ko'rchi?




**“Bo'ri va yetti uloqcha “**. Ushbu ertagimiz ham she'riy janrda bo'lib , ertakni aytib berish jarayonida ona echki bolalarini eshikni ochishini so'rab kuylashi bolalarga juda yoqimli eshitiladi. Bu ertakda ham bo'ri va ona echki ovozini farqlash borasida bolaga bir nechta savollar berish mumkin.





**Samuel Marshakning** “Ahmoq sichqoncha” ertagi. Bu ertakda ham turli hayvonlarning kichkina sichqonchani ovutish maqsadida aytib bergan allalarini eshitishimiz mumkin. Qurbaqaning qurillashi, cho’chqaning xirrilashi , otning kishnashi,tovuqning qaqqilashi, mushukning miyovlashi. Bola hayvonlarning ovoziga taqlid qiladi va ularning ovozini takrorlaydi.



Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki sensor alalik bolalar fonematik idrokini korrektsiyalashda Ertak terapiyasining ahamiyati juda foydali hisoblanadi. Bola ertaklar yordamida uning ruhiyati, fikrlashi, eshituv idroki yaxshilanadi. Sensor alalik bolalarning nutqiy eshituv idrokini takomillashtirishda ovozning mustahkamligiga va ravonligini rivojlantirish, tovushlarni farqlashga o’rgatish, ularni past va baland ovoz bilan talaffuz qilishga va rivojlantirishga yordam beradi. Ertak bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyai, 2007.
2. Logopediya L.S. Volkova, S.I. Shaxovskaya. Izd-vo "Vlados"- M., 2002.
3. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений. Под ред. Л.С. Волковой. 5-е изд. М.: Гуманитарный изд. центр «ВЛАДОС», 2009. 703 с. [Speech therapy: a course book for students of defectological faculties of pedagogical institutions. Ed. by L.S. Volkova. 5th edn. Moscow: Humanitarian publishing center "VLADOS", 2009. 703 p. (In Russ.)].
4. Мастюкова Е.М. Онтогенетический подход к структуре дефекта при моторной алалии. Дефектология 1981;6:13. [Mastyukova E.M. Ontogenetic approach to the defect structure in motor alalia. Defektologiya = Defectology 1981;6:13. (In Russ.)].
5. Горбачевская Н.Л., Якупова Л.П. Особенности формирования ЭЭГ у детей с психической патологией. В кн.: Аутизм в детстве. М.: Медицина, 1999. С. 160-189. [Gorbachevskaya N.L., Yakupova L.P. Specific features of EEG in children with mental disorders. In: Autism in childhood. Moscow: Meditsina, 1999. Pp. 160-189. (In Russ.)].